TDPU
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

NARGIZA AHMEDOVA SHIXNAZAROVNA

# QIZIQARLI MORFOLOGIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**NARGIZA AHMEDOVA SHIXNAZAROVNA**

# QIZIQARLI MORFOLOGIYA

**Uslubiy qo‘llanma**

Ta’lim yo‘nalishi: 5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
O‘TAU
AXBOROT-RESURS MARKAZI
441

**Toshkent – 2016**

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
ToshDO‘TAU
AXBOROT-RESURS MARKAZI

## Annotatsiya

Mazkur uslubiy qo'llanma o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan. Qo'llanma hozirgi o'zbek adabiy tili fanini to'liqroq o'zlashtirishga, mavzularni mustahkamlashga, talabalarning o'zbek tiliga bo'lgan qiziqishining ortishiga xizmat qiladi.

**Mas'ul muharrir:** N.M.Mahmudov, filologiya fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:** S.Muhamedova, Nizomiy nomidagi TDPU professori, filologiya fanlari doktori

G'.Ismoilov, O'zFA Til va adabiyot instituti ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi

Mazkur uslubiy qo'llanma Nizomiy nomidagi TDPU O'zbek tili va adabiyoti fakulteti o'quv-uslubiy kengashining 2015-yil 24-dekabrdagi 4-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

© Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

## 1-BO'LIM

## 01-Krossvord



## 01-Krossvord
## Krossvord savollari:

**Eniga:**

**1.** Narsaning miqdorini sanab, donalab ko'rsatishga xizmat qiladigan son turi.

**2.** Predmetning belgisini bildiruvchi so'z turkumi.

**3.** Lotinchada "usul, o'lchov" ma'nolarini bildiruvchi so'z.

**4.** Fe'lning grammatik kategoriyalaridan biri.

**5.** "Uyga borgandan ... telefon qil".

**6.** Tushum kelishigi qo'shimchasi.

**7.** Ko'makchi fe'l bog'lanib kelgan mustaqil fe'l.

**8.** "Illat yo moshda, yo oshda" gapida qanday bog'lovchi qo'llangan?

**9.** Miqdor, sanoq kabilarni bildiruvchi so'z turkumi.

**10.** Grammatik ma'no yordamchi so'z orqali ifodalangan shakl.

**11.** Miqdorni butunning qismiga ko'ra ifodalovchi sonlar.

**12.** Mustaqil so'zlar orasidagi turli munosabatlarni ifodalovchi so'z turkumi.

**13.** Fe'l anglatgan harakat va holat predmetning bir qismiga o'tganligi ta'kidlansa, o'timli fe'l qaysi kelishikdagi so'zni boshqarib keladi?

**14.** "Bugun beshovimiz ham borsak, u xursand bo'ladi" gapida qanday son ishlatilgan?

**Bo'yiga:**

**2.** So'zlarga qo'shimchalar qo'shish bilan hosil qilinadigan grammatik shakl.

**3.** Fe'lning grammatik kategoriyalaridan biri.

**5.** Erkalash shaklini hosil qiluvchi affiks.

**7.** Zidlov bog'lovchilaridan biri.

**15.** So'z yasalishi usullaridan biri.

**16.** Ko'rsatish olmoshlaridan biri.

**17.** Chegara ma'nosini ifodalovchi affiks.

**18.** Predmet nomini bildiruvchi so'z turkumi.

**19.** Xabar maylining boshqacha nomlanishi.

**20.** -sa affiksi orqali hosil bo'ladigan mayl turi.

**21.** Miqdor sonning turlaridan biri.

**22.** Uyushgan bo'laklar va ayrim gaplar orasida yakka holda qo'llanuvchi bog'lovchilar.

**23.** Ravishlar gapda ko'pincha qaysi vazifada keladi?

## 02-Krossvord



## 02-Krossvord

**Krossvord savollari:**

**Eniga:**

**1**. Fonetikaning yuqori bosqichi, tovush mas'uliyatini va uning fonologik sistemaga uyushish qonuniyatlarini o'rganuvchi bo'lim qaysi?

**3.** Fonetik birliklardan biri.

**5.** Fonologiyaning zanjirsimon tuzilishga ega bo'lgan turi.

**6.** Tovush so'z va grammatik ko'rsatkichlarni shakllantirar ekan, uning o'z ma'nolarini farqlashga xizmat qiladigan turiga nima deyiladi?

**7.** Fonemalarning bir-biridan farqlanishi bu ... .

**8.** Fonemalarning o'zaro farqlanmaydigan belgilari bu ... .

**Bo'yiga:**

**1**. Tilshunoslikning nutq tovushlarini o'rganadigan bo'limi.

**2.** Fonologiyada urg'u nima deyiladi?

**4.** Ikkita fonemaning bitta farqlanish belgisi asosida zidlanish hosil qilishi nima deyiladi?

**5.** Urg'u, ohang qanday birliklar sirasiga kiradi?

# 03-Krossvord



## 03-Krossvord

### Krossvord savollari

**Eniga:**

**1**. So'z tarkibida kelgan ikki undoshning o'zaro o'rin almashishi.

**2.** So'z tarkibidagi biror bo'g'inning kuchli zarb bilan talaffuz etilishi.

**3.** Unli bilan tugagan bo'g'in.

**4.** Havo oqimi og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchrab, portlab yoki sirg'alib chiqqan tovush.

**5.** Nutq jarayonida bir havo zarbi bilan aytiladigan tovushlar yig'indisi.

**6.** Tilshunoslikning nutq tovushlarini o'rganuvchi bo'limi.

**7.** Ma'nosi bir so'zga teng bo'lgan ko'chma ma'nodagi so'zlar yig'indisi.

**8.** Undosh bilan tugagan bo'g'in qanday bo'g'in sanaladi?

**9.** Gap o'z tarkibida nimalarni mujassamlashtiradi?

**10.** Morfologiya va sintaksisni o'zida birlashtirgan tilshunoslik bo'limi.

**Bo'yiga:**

**1**. So'z turkumlari grammatikaning qaysi qismida o'rganiladi?

**11.** So'z va uning ma'noli qismlarini shakllantirish, farqlash vazifasini bajaruvchi eng kichik til birligi.

**12.** Nutq a'zolarining artikulyatsiyasi bilan hosil bo'luvchi eng kichik nutq birligi.

**13.** So'zning o'zak qismiga qo'shilib, turli shakllar yasovchi yoki shakllantiruvchi bo'lak.

**14.** Nutq tovushlarining hosil bo'lishi paytidagi nutq a'zolarining harakati.

## 04-Krossvord



## 04-Krossvord
## Krossvord savollari:

**Eniga:**

**2**. Predmetning belgisini bildiruvchi so'z turkumi.
**7.** Harakat-holatning, ba'zan esa belgining belgisini anglatuvchi so'z turkumi.
**12**. Boshqa turkumdagi so'zlar o'rnida qo'llanadigan, o'z lug'aviy ma'nosiga ega bo'lmagan so'zlar qaysi turkumga kiradi?
**13**. Jamlovchi son qaysi affiks yordamida hosil qilinadi?
**16.** Miqdor sonning turlaridan biri.
**19**. Predmetning umumiy nomini bildiruvchi otlar qanday otlar sanaladi?
**21**. Predmetning harakat-holatini bildiruvchi so'zlar turkumi.

**Bo'yiga:**

**1**. *Kalta, yaxshi* so'zlari ma'nosiga ko'ra sifatning qaysi turiga mansub?
**3**. Sifatning erkalash shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha.
**4**. Kishi holatini bildiruvchi sifatlardan biri.
**5**. Sifat gapda asosan qanday vazifani bajarib keladi?
**6**. Sifatning darajalaridan biri.
**8**. *Chorasizlikdan* so'zi ravishning qaysi turiga mansub?
**9**. Holat ravishlaridan biri.
**10**. Otga bog'lanib kelgan ravishdoshlar gapda qanday vazifani bajaradi?
**11**. Ravishning nechta ma'no turi mavjud?
**14**. Gumon olmoshi morfemalaridan biri.
**15**. So'roq olmoshiga *-dir* affiksini qo'shish orqali qanday turdagi olmosh yasaladi?
**16**. Miqdor va tartib bilan aloqador, raqamlar bilan ifodalana oladigan so'z turkumi?
**17**. Olmoshning ma'no turlaridan biri.
**18**. Predmetning nomini bildirgan so'zlar qaysi turkumga kiradi?
**20**. Predmet harakat-holatining belgisini ko'rsatuvchi fe'lning funksional shakli qanday nomlanadi?
**22**. Qanday fe'l tushum kelishigidagi so'zni boshqarib keladi?

# 05-Krossvord



## 05-Krossvord
## Krossvord savollari:

**Eniga:**

1. Ot, sifat, olmosh, otlashgan so‘zlardan keyin kelib, so‘zlarni bir-biriga tobelantirib bog‘laydigan so‘z turkumi.
2. Uyushiq bo‘laklarni va qo‘shma gap tarkibidagi gaplarni o‘zaro bog‘laydigan yordamchi so‘z turkumi.
3. Asl ko‘makchilardan biri.
4. His-hayajon undovi.
5. Fe’lning ma’lum bir grammatik kategoriyasiga xos grammatik ma’nolarni ifodalovchi shakli.
6. *Kabi* ko‘makchisining sinonimi bo‘lgan so‘z.
7. Harakat va holatning bajarilish o‘rnini va harakat yo‘nalgan tomonni bildiruvchi ravish turi.
8. Fe’lning modal shakllari tuzilish jihatidan sintetik va . . . shaklda bo‘ladi.
9. Biror obyektga o‘tmaydigan ish-harakatni anglatuvchi fe’llar qanday fe’l deyiladi?
10. *Endi sizlarnikiga mehmonga bormoqchi bo‘lib turgan edik.* Ushbu gapning kesimi qaysi mayldagi fe’l bilan ifodalangan?
11. *Binoning og‘ir eshigi ochildi.* Mazkur gapda qaysi darajadagi fe’l qo‘llangan?
12. Sof ko‘makchilardan biri.

**Bo‘yiga:**

1. So‘z turkumlarining bir-biriga ko‘chishi tilshunoslikda qanday ataladi?
13. Bosh kelishikdagi so‘z bilan ishlatiladigan ko‘makchilardan biri.
14. Teng bog‘lovchi turlaridan biri.
15. “keltir” so‘zi fe’lning qaysi daraja shaklida?
16. Boshqa turkumdagi so‘zlarning olmoshga o‘tishi, ya’ni olmoshlashish hodisasi tilshunoslikda qanday atama bilan yuritiladi?
17. Fe’lning biror-bir grammatik kategoriyasiga mansub bo‘lmay, turli ma’nolar ifodalash yoki boshqa vazifalarni bajarish uchun qo‘llanuvchi shakllari qanday shakllar hisoblanadi?
18. “yozishdi” so‘zi fe’lning qaysi daraja shaklida?
19. Tushum kelishigidagi so‘zni boshqarib keladigan fe’l qanday fe’l sanaladi?

## 06-Krossvord



## 06-Krossvord

### Krossvord savollari:

**Eniga:**

**1.** So'z turkumlarini o'rganadigan tilshunoslik bo'limi.
**2.** Fonetika grekcha qaysi so'zdan olingan?
**3.** Fonetika so'zi qanday ma'noni bildiradi?
**4.** "Intilish kishini kamolotga yetaklaydi" jumlasidagi egani toping.
**5.** Og'iz bo'shlig'i shovqin manbayi orqali qanday tovush hosil bo'ladi?
**6.** B, P tovushlari hosil bo'lish o'rniga ko'ra qanday undoshlar sanaladi?

**Bo'yiga:**

**7.** Tilning tovush tomoni qurilishini o'rganadigan fan?
**8.** Agar fikr nutq tovushlari orqali ifodalansa bu qanday nutq hisoblanadi?
**9.** Nutq tovushlarini hosil qilishda nutq a'zolarining harakati va holati nima deyiladi?

# 07-Krossvord



## 07-Krossvord

### Krossvord savollari:

**Eniga:**

**1**. Mavjudlikka so'roqni bildiruvchi olmosh.
**2**. Teng bog'lovchining bir turi.
**3**. O'timli va o'timsiz fe'llardan o'timli fe'lni yuzaga keltiruvchi daraja shakli.
**4**. Fe'lning harakat-holat belgisini bildirishga moslangan funksional shakli.
**5**. Til materialidan foydalangan holda og'zaki yoki yozma shaklda fikr ifodalash.
**6**. Fe'lning kategorial shakli.
**7**. Ko'rsatish olmoshi.
**8**. Til taraqqiyoti natijasida so'zlarning bir turkumdan ikkinchi turkumga o'tishi qanday yuritiladi?
**9**. Sifat turkumidagi so'zdan yasalgan mavhum ot.
**10**. Jo'nalish kelishigidagi so'z bilan birga qo'llanuvchi ko'makchi.
**11**. *Hamma, barcha, bari* so'zlari olmoshning qaysi turiga mansub?
**12**. Boshqa turkumdagi so'zlarning sifatga ko'chishi fanda qanday ataladi?

**Bo'yiga:**

**1**. Eski o'zbek tilida *men* olmoshi o'rnida qo'llangan so'z.
**13**. Fe'l nisbatlaridan biri.
**14**. Tushum kelishigidagi so'zni boshqarib, biror predmetga o'tgan harakatni ifodalovchi fe'l ... fe'l deyiladi.
**15**. Fe'lning modal shakllari tuzilish jihatidan qanday turga mansub?
**16**. Boshqa so'z turkumlari o'rnida qo'llanadigan, aniq lug'aviy ma'noga ega bo'lmagan so'z turkumi.
**17**. *kabi, misoli, misol* so'zlariga sinonim bo'lgan ko'makchi.
**18**. Ko'p qo'llanadigan ko'makchilardan biri.
**19**. Qo'shimcha ma'no yuklash vazifasini bajaruvchi yordamchi so'z turkumi.

## 08-Krossvord




ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
ToshDO'TAU
AXBOROT-RESURS MARKAZI



ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
ToshDO'TAU
AXBOROT-RESURS MARKAZI

## 08-Krossvord

### Krossvord savollari:

**1**. Biriktiruvchi bog'lovchilardan biri.
**2**. So'zlovchining gapda ifodalanayotgan fikrga munosabatini bildiruvchi so'zlar . ... so'zlardir.
**3**. Biror bo'g'inning boshqalariga nisbatan kuchliroq aytilishini ta'minlovchi vosita.
**4**. Eng ko'p grammatik kategoriyaga ega bo'lgan so'z turkumi.
**5**. Miqdor va tartib bilan bog'liq mustaqil so'z turkumi.
**6**. Tushum kelishigisiz hosil qilinadigan to'ldiruvchi qanday to'ldiruvchi hisoblanadi?
**7**. Sababni ifodalovchi bog'lovchi.
**8**. Miqdor sonlaridan biri.
**9**. So'zga yoki gapga qo'shimcha ma'no yuklaydigan yordamchi so'z turkumi.
**10**. Ergashtiruvchi bog'lovchilarning bir turi.
**11**. Fe'lning funksional shakllaridan biri.

## 09-Krossvord



## 09-Krossvord

## Krossvord savollari:

**1**. O'zbek tilida ko'p ishlatiladigan ko'makchilardan biri.
**2**. Fe'l zamonlaridan biri.
**3**. Zidlov bog'lovchisi.
**4**. Maxsus qo'shimchasiz fe'l mayli.
**5**. Og'zaki nutqda ko'p qo'llanadigan zidlov bog'lovchisi.
**6**. Asosan sabab ma'nosini ifodalaydigan ko'makchi.
**7**. Fe'l darajasining yana bir nomi.

# 10-Krossvord



## 10-Krossvord
## Krossvord savollari:

**Eniga:**

**1.** Qachon? Qachondan beri? so‘roqlariga javob bo‘lib, harakat va holatning bajarilish paytini bildiradigan ravish turi.

**2.** Fe’lning nutqda ma’lum bir vazifani bajarishga moslangan shakllari.

**3.** *Buyuk kishilar doim insoniyat uchun qayg‘uradilar.* Ushbu gapdagi *uchun* ko‘makchisi qanday ma’no anglatadi?

**4.** Gapda mustaqil so‘zlarni yoki qo‘shma gap komponentlarini biriktirish uchun xizmat qiluvchi yordamchi so‘zlar ... deyiladi.

**5.** *Agar bir-birimizni hurmat qila bilsak, qadrdon ham bo‘lib qolamiz.* Ushbu gapda fe’lning funksional shakllaridan qaysi biri qatnashgan?

**6.** *Tilagimiz shuki, yaxshi ishlab odamlarning hurmatiga sazovor bo‘lsin.* Ushbu gapdagi bog‘lovchining turini aniqlang.

**7.** Turli sharpa-tovushlarning yoki shu’la-harakatlarning holati bo‘lgan so‘zlar ... so‘zlar deyiladi.

**8.** Harakatning bajarilishi haqida tasdiqni ifodalovchi fe’l shakli?

**9.** Modal so‘zi lotincha qaysi so‘zdan olingan?

**10.** *Auditoriya keng, lekin shovqin edi.* Gapdagi bog‘lovchining turi?

**11.** O’zgalarning e’tiroz faraziga o‘rin qoldirmaydigan qat’iy shakldagi tasdiqni bildiruvchi modal so‘z qaysi?

**12.** So‘z turkumlari ichida murakkab grammatik kategoriyalar tizimiga ega bo‘lgan so‘z turkumi qaysi?

**13.** *Shamol esardi “g‘ir-g‘ir”,*
*Yaproqlar “shildir-shildir”.*
Ushbu gapda fe’lning vazifasi?

**14.** Tushum kelishigidagi so‘zni boshqarib, biror predmetga o‘tgan harakatni bildirgan fe’lning nomi?

**15.** Aziza va Komila chuqur samimiyat va do‘stlik hissi bilan ko‘rishishdi. Ushbu gapdagi fe’l qaysi nisbatda?

**16.** *Ko‘rib qoldi* so‘z qo‘shilmasidagi *qoldi* so‘zi qanday fe’l hisoblanadi?

**Bo‘yiga:**

**17.** Fe’lning mayl yoki zamon shaklini hosil qilmaydigan shakli?

**18.** To‘liqsiz gapning gumon, noaniqlik ma’nolarini ifodalaydigan shakli qanday?

**19.** Bu daraja shaklining asosiy xususiyati – u o'timli fe'lni o'timsiz fe'lga aylantiradi. Bu qaysi fe'l darajasiga tegishli ta'rif?

## 11-Krossvord



## 11-Krossvord
## Krossvord savollari:

**Eniga:**

**1**. Sifat so'z turkumining savoli.
**5.** Nisbiy sifat qo'shimchasi qatnashgan so'z.
**8.** Ozaytirma daraja qo'shimchasi qatnashgan sifat.
**10.** Oddiy, orttirma, ozaytirma – bular sifatning qaysi kategoriyasi?
**12.** Rang-tusni bildiruvchi sifatlarga qo'shiluvchi affiks.
**13.** Sifat darajalaridan birining nomi.
**15.** O'rin va paytga munosabatni bildiruvchi sifat.
**17.** Otdan sifat yasovchi qo'shimcha.
**18.** Nisbiy sifat yasovchi qatnashgan so'z.
**19.** Fe'ldan sifat yasovchi qo'shimcha qatnashgan so'z.
**21.** Ozaytirma sifat yasovchi qo'shimcha.
**22.** Otdan sifat yasovchi qo'shimcha qatnashgan so'z.

**Bo'yiga:**

**2.** Maza-ta'm bildiruvchi sifatlardan biri.
**3.** Otdan sifat yasovchi qo'shimcha.
**4.** Sifat darajalaridan birining nomi.
**6.** Holat bildiruvchi sifat.
**7.** *Baland-baland* so'zi sifatning qaysi turiga kiradi?
**9.** Hid bildiruvchi sifatga misol.
**11.** Otdan yasalgan sifatga misol.
**13.** Otdan sifat yasovchi qo'shimcha.
**14.** Fe'ldan sifat yasovchi qo'shimcha ishtirok etgan so'z.
**16.** Vazn-og'irlikni bildiruvchi sifat.
**20.** Fe'ldan sifat yasovchi qo'shimcha.
**23.** Nisbiy sifatning egizagi.

# 12-Krossvord



## 12-Krossvord

### Krossvord savollari:

1. *Kamtar, yaxshi, yomon, tirishqoq* so'zlari qanday sifat sanaladi?
2. *Yaxshi so'z jon ozig'i* gapidagi sifat turkumiga mansub so'z gapda qanday vazifada kelgan?
3. *a'lochi, nafar, kuzgi* so'zlaridan qay biri sifat so'z turkumiga mansub emas?
4. Otdan sifat yasang: *tosh+...*
5. Sifat oldidan *juda, eng, g'oyat, bag'oyat* so'zlarini keltirish orqali qanday sifat darajasi yasaladi?
6. *Xona bo'm-bo'sh, havo sovuq.* Bu yerda sifatlar qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan?
7. Rang-tus bildiruvchi sifatlardan biri.
8. *U akasiga qaraganda kuchsizroq edi.* Bu gapda qaysi darajadagi sifat keltirilgan?
9. Sifatlarda erkalash shaklini hosil qiluvchi qo'shimchalardan biri.
10. *Nozik, uzun, chiroyli, kuzgi* so'zlaridan qaysi biri narsa-buyumning o'rin yoki vaqtga ko'ra belgisini bildiruvchi sifat hisoblanadi?
11. Sifatning morfologik xususiyatlaridan biri.
12. Sifatning otga ko'chishiga yaqqol misol bo'luvchi so'zlardan biri.
13. *Yaxshidan bog' qolar* gapidagi sifat qanday gap bo'lagi vazifasida kelgan?
14. *Po'lat temirdan qattiqroq* gapida qaysi darajadagi sifat qatnashgan?
15. Belgini bevosita anglatuvchi sifat qanday sifat sanaladi?

## 13-Krossvord



## 13-Krossvord

### Krossvord savollari:

**Eniga:**

**1**. Fe'lning funksional shakllaridan biri.

**2.** *Men ertaga kinoga bormoqchiman* gapining kesimi qaysi zamonda?

**3.** Agar fe'l biror ish-harakatning amalga oshmasligini bildirsa, u qanday fe'l sanaladi?

**4.** Fe'l tushum kelishigidagi so'zni boshqarmasa, u qanday fe'l bo'ladi?

**5.** Harakatning bajarilishi, amalga oshirilishini anglatuvchi fe'llar qanday fe'llar deyiladi?

**6.** Qaysi zamon fe'li fe'l negiziga -a, -y, -yap, -yotib, -yotir, -moqda qo'shimchalari va undan keyin tuslovchi qo'shimchalarni biriktirish orqali yasaladi?

**7.** Fe'llarning qaysi nisbatida sub'ektning harakati boshqa bir sub'ektning ta'siri natijasida bajariladi?

**8.** Qaysi nisbatda ish-harakatning bajaruvchisi noma'lum bo'ladi?

**9.** Ish-harakat va holatning belgisini, paytini, o'rnini, maqsadini bildiradigan so'zlar turkumi?

**10.** *Ko'rib qoldi* fe'lining yetakchi fe'li qaysi?

**11.** O'timli fe'llar qaysi kelishik qo'shimchasini olgan so'zni boshqarib keladi?

**12.** Qaysi mayl fe'l o'zagiga -sa qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi?

**13.** *kelayotibman, boradiganman, borayotgandim.* Bulardan qay biri kelasi zamon fe'li hisoblanadi?

**Bo'yiga:**

**13**. *Dilorom onasiga qarashdi.* Ushbu fe'l qaysi nisbatda berilgan?

**14**. Predmetning ish-harakati va holatini bildiruvchi so'z turkumi.

**15**. Ravishdosh yasovchi qo'shimchalardan biri.

## 14-Krossvord



## 14-Krossvord

**Krossvord savollari:**

**1.** Fe'lning funksional shakllaridan biri.
**2.** Fe'l nimaning holat belgisini ifodalaydi?
**3.** Fe'lning zamon va shaxs-son shakllari qaysi shaklga bog'liq bo'lib, ular birgalikda fe'lning tuslanishini hosil qiladi?
**4.** Ravishdoshning bo'lishsiz shaklini yasaydigan affiks.
**5.** Tushum kelishigidagi so'zni boshqarib keluvchi fe'l qanday fe'l deyiladi?
**6.** Ish-harakatning paytga munosabatini bildiruvchi kategoriya qaysi?
**7.** Fe'lning funksional shakllaridan qaysi biri zamon ko'rsatkichiga ega?
**8.** Gapirib turdi qo'shilmasidagi ko'makchi fe'l qaysi?
**9.** -dir, -tir qaysi nisbat qo'shimchasi hisoblanadi?
**10.** Aytib qo'ydi, gapira boshladi fe'llari qanday fe'l sanaladi?
**11.** SIfatdosh, ravishdosh va harakat nomi fe'lning qanday shakllari hisoblanadi?
**12.** Qaysi nisbatdagi fe'l ifodalagan harakat boshqp kishi tomonidan bajariladi?
**13.** Qani edi mashhur inson bo'lsam... gapida qanday ma'no anglashilgan?

# 15-Krossvord



## 15-Krossvord
## Krossvord savollari:

**Eniga:**

**1.** Gap ichida mustaqil so'z turkumlaridan birining, ba'zan esa so'z birikmasi va gapning o'rnida qo'llana oluvchi so'z turkumi qaysi?

**2.** Maqsad maylining qo'shimchasi qanday?

**3.** Predmet belgisining nisbiy ortiqligini ko'rsatuvchi ozaytirma daraja qo'shimchasi qaysi?

**4.** So'zning asosida yotuvchi umumiy ma'nolarni birlashtiruvchi shakllar tizimi qanday kategoriya deb ataladi?

**5.** *Kabi* ko'makchisiga sinonim bo'lgan ko'makchi qaysi?

**6.** Tushum kelishigidagi so'zni boshqarib keladigan fe'l qanday fe'l hisoblanadi?

**7.** Ikki va undan ortiq so'z (asos) birikikb kelsa qanday forma hosil bo'ladi?

**8.** -jon, -xon affiksoidlarini olgan ot shakli qaysi?

**9.** Hozirda leksik ma'nolarini yo'qotgan, faqat grammatik ma'no ifodalaydigan so'zlar turkumi qaysi?

**10.** Turli sharpa-tovushlarning yoki shu'la-harakatlarning holati bo'lgan so'z?

**11.** Bir shaxs yoki predmetga atab qo'yiladigan otlar qanday ot sanaladi?

**12.** O'zaro zid mazmunli sodda gaplarni bir-biriga bog'laydigan bog'lovchi?

**13.** Bu fe'l yasash usulida ko'pincha ot, sifat, son, ravishtaqlidiy so'zlar, shuningdek, olmosh va undovlar yasash vazifasida keladi, bu qanday usul hisoblanadi?

**Bo'yiga:**

**14.** *Baxt, do'stlik, tinchlik* kabi otlar qanday otlar hisoblanadi?

**15.** Milliy tilimizni o'rganuvchi fan sohasi.

**16.** Jo'nalish kelishigining fonetik o'zgargan shakli.

**17.** Harakat va holatning belgisini, shuningdek, belgining belgisini bildiruvchi so'z turkumi.

## Javoblar

### 01-Krossvord javoblari:

**Eniga:**
**1**. Sanoq.
**2**. Sifat.
**3**. Modal.
**4**. Zamon.
**5**. Keyin.
**6**. -ni.
**7**. Yetakci.
**8**. Ayiruv.
**9**. Son.
**10**. Analitik.
**11**. Kasr.
**12**. Komakchi.
**13**. Chiqish.
**14**. Jamlovchi.

**Bo'yiga:**
**2**. Sintetik.
**3**. Mayl.
**5**. -kina.
**7**. Biroq.
**15**. Affiksatsiya.
**16**. Ana.
**17**. -gacha.
**18**. Ot.
**19**. Ijro.
**20**. Shart.
**21**. Dona.
**22**. Yakka.
**23**. Hol.

### 02-Krossvord javoblari:

**Eniga:**
**1**. Fonologiya.
**3**. Bo'g'in.

5. Segmental.
6. Fonema.
7. Differensial.
8. Integral.

**Bo'yiga:**
1. Fonetika.
2. Aksentema.
4. Oppozitsiya.
5. Supersegmental.

## 03-Krossvord javoblari

**Eniga:**
1. Metateza.
2. Urg'u.
3. Ochiq.
4. Undosh.
5. Bo'g'in.
6. Fonetika.
7. Ibora.
8. Yopiq.
9. So'z.
10. Grammatika.

**Bo'yiga:**
1. Morfologiya.
11. Fonema.
12. Tovush.
13. Qo'shimcha.
14. Artikulyatsiya.

## 04-Krossvord javoblari:

**Eniga:**
2. Sifat.
7. Ravish.
12. Olmosh.
13. -ovlon.

**16.** Sanoq.
**19**. Turdosh.
**21**. Fe'l.

**Bo'yiga:**
**1**. Xususiyat.
**3**. -gina.
**4**. Xafa.
**5**. Aniqlovchi.
**6**. Ozaytirma.
**8**. Sabab.
**9**. Darrov.
**10**. Sifatlovchi.
**11**. Besh.
**14**. Alla-.
**15**. Gumon.
**16**. Son.
**17**. Belgilash.
**18**. Ot.
**20**. Sifatdosh.
**22**. O'timli.

## 05-Krossvord javoblari:

**Eniga:**
**1**. Ko'makci.
**2**. Bog'lovci.
**3**. Qadar.
**4**. Voy.
**5**. Kategoriya.
**6**. Singari.
**7**. O'rin.
**8**. Analitik.
**9**. O'timsiz.
**10**. Maqsad.
**11**. Majhul.
**12**. Orqali.

**Bo‘yiga:**
**1**. Konversiya.
**13**. Bilan.
**14**. Zidlov.
**15**. Orttirma.
**16**. Pronominalizatsiya.
**17**. Funksional.
**18**. Birgalik.
**19**. O‘timli.

## 06-Krossvord javoblari:

**Eniga:**
**1**. Morfologiya.
**2**. Fone.
**3**. Tovus.
**4**. Intilis.
**5**. Undos.
**6**. Lablab.

**Bo‘yiga:**
**7**. Fonetika.
**8**. Ogzaki.
**9**. Artikulyatsiya.

## 07-Krossvord javoblari:

**Eniga:**
**1**. Qani.
**2**. Zidlovchi.
**3**. Orttirma.
**4**. Ravishdosh.
**5**. Nutq.
**6**. Mayl.
**7**. Ushbu.
**8**. Konversiya.
**9**. Go‘zallik.
**10**. Binoan.
**11**. Jamlovchi.

12. Adektivatsiya.

**Bo'yiga:**
1. Qulingiz.
13. Aniq.
14. Otimli.
15. Analitik.
16. Olmosh.
17. Singari.
18. Tomon.
19. Yuklama.

## 08-Krossvord javoblari:

1. Bilan.
2. Modal.
3. Urg'u.
4. Fe'l.
5. Son.
6. Vositali.
7. Chunki.
8. Ikki.
9. Yuklama.
10. Aniqlov.
11. Ravishdosh.

## 09-Krossvord javoblari:

1. Kabi.
2. O'tgan.
3. Ammo.
4. Xabar.
5. Lekin.
6. Uchun.
7. Nisbat.

## 10-Krossvord javoblari:

**Eniga:**
**1**. Payt.
**2**. Funktsional.
**3**. Maqsad.
**4**. Bog'lovchi.
**5**. Ravishdosh.
**6**. Aniqlov.
**7**. Taqlidiy.
**8**. Bo'lishli.
**9**. Modus.
**10**. Zidlovchi.
**11**. So'zsiz.
**12**. Fe'l.
**13**. Kesim.
**14**. Ob'ektli.
**15**. Birgalik.
**16**. Ko'makchi.

**Bo'yiga:**
**17**. Tuslanishsizfe'l.
**18**. Emish.
**19**. O'zlik.

## 11-Krossvord javoblari:

**Eniga:**
**1**. Kanday.
**5**. Toshkentlik.
**8**. Koramtir.
**10**. Daraja.
**12**. Imtir.
**13**. Orttirma.
**15**. Avvalgi.
**17**. Siz.
**18**. Oilaviy.
**19**. Tuzuk.

**21**. Gina.
**22**. Olamshumul.

**Bo‘yiga:**
**2**. Nordon.
**3**. Yi.
**4**. Ozaytirma.
**6**. Kar.
**7**. Takroriy.
**9**. Muattar.
**11**. Rahmdil.
**13**. Omuz.
**14**. Maqtanchok.
**16**. Vazmin.
**20**. Uk.
**23**. Asliy.
**24**. Lik.

## 12-Krossvord javoblari:

**1**. Xususiyat.
**2**. Aniqlovchi.
**3**. Nafar.
**4**. Toshbag‘ir.
**5**. Orttirma.
**6**. Kesim.
**7**. Ko‘kimtir.
**8**. Ozaytirma.
**9**. -toy.
**10**. Kuzgi.
**11**. Darajalanish.
**12**. Erkak.
**13**. To‘ldiruvchi.
**14**. Orttirma.
**15**. Asliy.

## 13-Krossvord javoblari:

**Eniga:**
**1**. Sifatdosh.
**2**. Kelasi.
**3**. Bo'lishsiz.
**4**. O'timsiz.
**5**. Bo'lishli.
**6**. Hozirgi.
**7**. Orttirma.
**8**. Majhul.
**9**. Ravish.
**10**. Ko'rib.
**11**. Tushum.
**12**. Shart mayli.
**13**. Boradiganman.
**Bo'yiga:**
**13**. Birgalik.
**14**. Fe'l so'z turkumi.
**15**. -guncha.

## 14-Krossvord javoblari:

**Eniga:**
**1**. Sifatdosh.
**2**. Predmet.
**3**. Mayl.
**4**. -mas.
**5**. O'timli.
**6**. Zamon.
**7**. Sifatdosh.
**8**. Turdi.
**9**. Orttirma.
**10**. Ko'makchi.
**11**. Funksional.
**12**. Majhul.
**13**. Istak.

Adadi 100 nusxa. Hajmi 2,75 b/t. Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$
«Times New Roman» garniturasi. Ofset usulida bosildi.
Nizomiy nomidagi TDPU Rizografida nashr qilindi.
Toshkent, Yusuf Xos Hojib 103.